

"MODERN PHILOLOGICAL PARADIGMS: INTERACTION OF TRADITIONS AND INNOVATIONS III"

INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
08.05.2023


organizing Committee:

National University of Uzbekistan

Faculty of Foreign Philology

Department of French Philology

Friendship societyUzbekistan France



TASHKENT 2023



International scientific-practical conference on the theme:
«MODERN PHILOLOGICAL PARADIGMS: INTERACTION OF TRADITIONS
AND INNOVATIONS III»

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS

1-SHO'BA

ILMIY TADQIQOTLARDA XORIJ TAJRIBASI

SECTION 1
FOREIGN EXPERIENCE IN THE FIELD OF RESEARCH

Х.А. НЕМАТОВА. ЎЗБЕК САФАРНОМАЛАРИДА МУАЛИФЛАРНИНГ НОЁБ МАХОРАТЛАРИ.....	15
Х.Л. MAXAMMADIYEV. LEXEMAS REPRESENTING PLACE OF RESIDENCE IN ALISHER NAVOI'S "KHAMSA" EPIC	20
У.А. ЖАББАРОВ. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАЩА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ПРИНЦИПЛАРИ ВА ПАРАМЕТРЛАРИ	25
F.A. SAMARKHODJAYEVA. LINGUO-DISCURSIVE PECULIARITIES OF LEGAL TEXTS WITHIN THE PRE-TRANSLATION ANALYSIS.....	33
И.С. БАГАУТДИНОВА. ЎРТА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФРАНЦУЗ ТИЛИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА ТИЛНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ	37
A.S. TOSHTEMIROVA. LITERARY TRANSLATION AND ITS PROBLEMS	40
SH.I. AZIMOVA. OILA DISKURSIDA NUTQIY ETIKET KOMPONENTLARINING YAXSHI NUTQ ME'ZONLARINI TASHKIL QILISHDAGI AHAMIYATI.....	44
С.С. БАГАУТДИНОВА, С. ПИРНАЗАРОВА. КРИТЕРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПРИНЦИПЫ МЕТОДОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	47
G.G. RADJABOVA. THE INTEGRATION OF CORPUS LINGUISTICS AND LANGUAGE TEACHING.....	51
М. АБДУЛЛАЕВА. НУТКИЙ АКТЛАР ДОИРАСИДА ҲУРМАТ ТАМОЙИЛЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ЛИСОНӢ ВОСИТАЛАР.....	55

2-SHO'BA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA FUNDAMENTAL VA AMALIY INNOVATSION
TADQIQOTLAR

SECTION 2
FUNDAMENTAL AND PRACTICAL INNOVATIVE RESEARCH IN MODERN
LINGUISTICS

М.О. ISMAILOVA. THE ROLE OF WORLD-WIDE SCIENTISTS TO THE STUDY OF THE HERITAGE OF SHIHAB-AD-DIN SUHRAWARDI.....	58
SH.T. MAMADALIYEVA, Z.M. YAXYAYEVA. O'ZBEKİSTONDA TURİZM TURLARI VA UNİNG TARAAQQIYOTI.....	62
Н. РЎЗИЕВА. ИСАЖОН СУЛТОННИНГ "ГЕНЕТИК" РОМАНИДА МЕТАФОРАЛАРНИНГ КЎЛЛАНИЛИШИ.....	66
X.H. XAYRULLA, ARZU KARAUSTA. TURK TİLİDAGI JURNALISTIKAGA OID TERMINLAR VA ULARNING TARJIMASI XUSUSIDA	71



OILA DISKURSIDA NUTQIY ETIKET KOMPONENTLARINING YAXSHI NUTQ
ME'ZONLARINI TASHKIL QILISHDAGI AHAMIYATI

Azimova Shahrinaz Ikromovna

Buxoro Davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: shahrinaz.8882@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqiy etiket tushunchasi va uning oilaviy muloqotda uyg'un nutqiy aloqalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oila diskursi va uni tashkil qiluvchilar nutqida etiket birliklarining vazifasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, oila diskursi, muloqot madaniyati, xushmuom alalik, nutqiy strategiya.

Аннотация: В данной статье описывается понятие речевого этикета и его значение в формировании гармоничного речевого общения в семейном общении. Также упоминается функция единиц речевого этикета в речи организаторов семейного дискурса.

Ключевые слова: речевой этикет, семейный дискурс, культура общения, вежливость, речевая стратегия.

Annotation: This article describes the concept of speech etiquette and its importance in the formation of harmonious speech communication in family communication. The function of speech etiquette units is also mentioned in the speech of the organizers of family discourse.

Keywords: speech etiquette, family discourse, communication culture, politeness, speech strategy.

Kundalik hayotning muloqot madaniyatini faoliyatining barcha jarayonlarini, shuningdek, individual yoki jamoaviy nutq shaklida namoyon bo'ladigan shaxslararo muloqotning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, oilaviy muloqotni ham.

Oila insonning shaxsiy yoki ijtimoiy avgeini oshirishga imkon beradigan lingvistik hattiharakatlarning madaniy kodlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy makondir. Ma'lum bir tilni o'rghanish, lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish, til birliklarini tanlash va uni turli xil ijtimoiy rollarni bajarishga muvofiq qo'llay olish qoidalari dastlab oila a'zolari o'tasidagi muloqot jarayonida o'zlashtiriladi.

Har qanday til hamjamiyatida bo'lgani singari oilada ham samarali muloqotga erishishda “lingvistik odob-axloq” qoidalariiga rioya etish lozim. Tilshunoslikda turli nutqiy vaziyatlarda kommunikativ shakillar va so'z birikmlarini tanlashni tartibga solishga qaratilgan qoidalari majmui nutqiy etiket deyiladi.

Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlarning ko'rinishlaridan biri bo'lib, u ko'proq insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi o'zini tutish qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Shuningdek, etiket keng qamrovli tushuncha sifatida, umumbashariy miqyosda qa'b ul qilingan muomala qonun-qoidalari o'z ichiga oladi [Husanov, 2009; 118].

Nutqiy etiket esa so'zlashuv odobi qoidalari tartibga soluvchi milliy, o'ziga xos stereotiplar, suhbadosh bilan aloqa o'rnatish, aloqani tanlangan strategiyalar asosida boshlash, davom ettirish yoki tugatish uchun qa'b ul qilingan lisoniy belgilarni nazarda tutadi.



Ba'zi adabiyotlarda nutqiy etiket atamasi "lingvistik etiket" tarzida ham qo'llaniladi [Loae Fakhri Jdetawy, Mohd Hilmi Hamzah, 2020; 695-717]. Lingvistik etiketga nisbatan "kommunikativ shakllar, til belgilari va so'z birikmalarini tanlashni tartibga solishga qaratilgan nutqiy hatti-harakatlarning maxsus to'plami" deya ta'rif berilgan [Loae Fakhri Jdetawy, Mohd Hilmi Hamzah, 2020; 695].

Ilmiy adabiyotlarda nutq etiketining ola diskursida, xususan er va xotin, ota-onva farzandlar o'rtaсидаги suhbatlarni tashkil qilishdagи ahamiyati haqida fikrlar mayjud bo'lsada, oilaviy muloqotni o'рганишга qaratilgan ko'pgina tadqiqotlarda nutqiy etiket komponentlarining qo'llanilishi yoxud ularning muloqot jarayonidagi vazifasi hali ham to'liq o'рганилмаган. Shu o'rinda, nutqiy etiket atamasi oilaviy muloqotga tegishlimi, tegishli bo'lsa ularning oilaviy suhbatlarni tashkil qilishdagи ahamiyati qanday, degan savollarga javob berish juda muhim. Bunda dastlab e'tiborimizni oila diskursi atamasiga qaratamiz.

Oila diskursi bu – birlgilikda yashovchi oila a'zolari o'rtaсидаги norasmiy, kundalik, shaxslararo muloqot [Байқулова; 2006, 8]. Oila diskursida oila a'zolari o'rtaсидаги munosabatlar, kundalik turmush ishlari, shaxsiy manfaatlari oid masalalar muhokamasi keng tajriba, bilim va tushunchalar asosida o'z aksini topadi. Muloqot ishtirokchilarining nutqiy xatti-harakatlari – ota-on, er-xotin, oiladagi boshqa a'zolarning ijtimoiy rollari, huquq va majburiyatlari, kommunikativ maqsadlari bilan belgilanadi. Bunday muloqotda nutq ko'pincha oldindan rejalashtirilmagan, maxsus tayyorlanmagan bo'ladi. Shu jihatlari bilan oilaviy muloqot boshqa sohalardagi, birinchi navbatda, institutsional sohadagi og'zaki o'zaro ta'sirdan farq qiladi. Ammo, oila diskursining norasmiy kundalik muloqot ekanligidan kelib chiqib, oila a'zolari o'rtaсидаги kommunikativ aloqlarda nutq etiketi komponentlarining ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas, albatta.

Oilada kommunikativ aloqlardan ko'zlangan asosiy maqsad samarali muloqotga erishish, uyg'un nutqiy aloqalarni yo'liga qo'yishdan iborat. Bunda asosiy vosita xushmuomalilik, ma'qillash, rozilik hamda xayrixohlik tamoyillari bo'lib, barchasi umumiy hurmat tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Nutqiy etiket birliklarining asosiy vazifasi ham muloqotda xushmuomalikni saqlashdir. Xushmuomalilik esa o'z navbatida nutq etiketi qoidalariiga rioya etishni nazarda tutadi. Demak, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bu tushunchalar oila diskursida yaxshi nutq mezonlarini yaratishda juda muhim hisoblanadi.

"Etiket va biz" asarida oiladagi nutqiy etiket ko'rsatkichlari haqida "Oilada xushmuomalilikning asosiy talablarini bajarish, uydan tashqarida bo'lganidan kam emas" deya ta'kidlangan [Этикет и мы; 1993. 77]. Demak, xushmuomalilik tamoyillariga asoslangan nutqiy etiketlarning oilada yaxshi nutq mezonlarini shakllantirishdagи ahamiyati juda katta.

A.V.Zanadvorova oiladagi nutqiy etiket komponentlarini suhbatdoshga nisbatan qo'pol so'z yoki iboralarni qo'llashni, ohangni ko'tarishni taqiqlash usuli sifatida baholaydi. Oilaviy hayotda salomlashish, xayrashish, raxmat aytish, iltimos qilish, kechirim so'rash, minnatdorchilik izhor etish juda muhim ekanligini qayd etadi [Занадворова; 2000, 382].

Oila diskursida eng ko'p qo'llanadigan nutqiy etiketlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

salomlashishni ifodalovchi: Assalomu aleykum/ Salom/ Xayrli tong;

minnatdorchilikni: Raxmat/ Minnatdorman/ Boringizga shukr;

iltimosini: Ittimos/O'tinib so'rayman;

kechirim so'rashni: Uzr/ Kechirasiz/ Afsusdaman;

izhorni: Yoqimli ishtaha/ Kuningiz yaxshi o'tsin/ Umringiz uzoq bo'lsin/Sog' bo'ling/ Ishingizga omad/ O'zingizni ehtiyyot qiling.



magtovni: *Barakalla/ Ko'rinishing ajoyib/Juda mehribonsiz/ Qoyil senga;*

qo'llab quvvatlashni: *Fikringizga qo'shilaman/ Ajoyib fikr;*

rag'batlantirishni: *Juda ajoyib/ Senga ishonamiz/ Sen buni qila olasan.*

Har bir oila o'ziga xos xushmuomalalik darajasini, o'ziga xos etiket (odob-axloq) me'yorlarini belgilaydi va turlicha etiket taktikasidan foydalanadi [Анохина; 2011, 148]. Shuningdek, oilaviy muloqotda nutqiy etikelarning qo'llanishida muloqot ishtirotchilari (oila a'zolari)ning kommunikativ maqsadi va muloqot kechadigan nutqiy vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ovqatlanish paytida oila a'zolariga yoqimli ishtaha tilash, ovqatlanib bo'lgandan so'ng raxmat aytish, boshqalardan oldin turish kerak bo'lsa uzr so'rab turish, ertalab xayrli kun, kechqurun xayrli tun tilash har qanday madaniyat vakillari uchun oilaviy munosbatlar doirasida yaxshi aloqalarni saqlab qolish hamda davom ettrish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Izlanishiar shuni ko'rsatadiki, oila diskursida nutqiy etiket komponentlaridan foydalanish har bir oiladagi psixologik muhit va muloqot kechadigan kommunikativ vaziyatdan tashqari oila a'zolarining rol-maqom xususiyatlari, oiladagi vazifa va majburiyatlar, muloqot kechadigan kommunikativ vaziyatga qarab turlicha bo'ladi. Har qanday holatda insonning nafaqat jamiyat a'zosi safatidagi balki, individual shaxs sifatidagi kommunikativ xulq-atvori muloqot qoida va an'analariga mos bo'lishi lozim. Bu kommunikantning samarali muloqotga erishishida asosiy vosita bolib xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анохина В.С. Семейное речевое общение: коммуникативный и адаптационный аспекты. UK. Lambert Academic Publishing. 2011. P 204.
2. Azimova Sh.I. The Role of Communicative Strategy and Tactics in Family Discourse. Pindus Journal of Culture, Literature and ELT. ISSN: 2792-1883. Volume 12. 2021. P 97-100.
3. Байкулова А.Н. Речевое общение в семье: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Саратов, 2006. С 20.
4. Этикет и мы. – М.: МК- Сервис, 1993. – 80 с. – ISBN 585801- 002-4.
5. Husanov B, G'ulomov V. Muomala madaniyati. Toshkent. "Ta'lim nashriyoti". 2009, 118 bet.
6. Loae Fakhri Jdetawy, Mohd Hilmi Hamzah. Linguistic etiquette: a review from a pragmatic perspective. Technium Social Science Journal. Vol. 14, 695-717, December, 2020. ISSN: 2668-7798.
7. Занадворова А.В. Речевое общение в малых социальных группах (на примере семьи)// Современный русский язык: социальная и функциональная дифференциация. - М.: Языки славянской культуры, 2003. – 381-402.